ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

MA‘MURIY VA JINOIY JARIMALARNING MIQDORI: IJTIMOIY XAVFLILIK DARAJASI, HUQUQIY TAHLIL VA XALQARO TAJRIBA

G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich
Ichki ishlar vazirligi
Buxoro akademik litseyi direktori podpolkovnik
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ma’muriy va jinoiy jarimalarning miqdorini belgilashda ijtimoiy adolat va odillik prinsiplari hamda ijtimoiy xavflilik darajasining yetarli darajada hisobga olinmaganligi, jarimalarning mutanosibligi, adolatliligi va ta’sirchanligi, xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlili asosida mavjud tizimga nisbatan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Xususan, Germaniya, Shvetsiya, AQSh va Qozog‘iston kabi davlatlar tajribasi tahlil etiladi.
Kalit so‘zlar: jarima, huquqiy tahlil, xalqaro tajriba, ijtimoiy xavflilik darajasi, daromadga moslashgan jarima, kodeks.

Abstract: This article proposes proposals and recommendations regarding the existing system based on a comparative analysis of the principles of social justice and fairness, as well as the level of social danger, the proportionality, fairness, and effectiveness of fines, and international practice in determining the amount of administrative and criminal fines in the legislation of the Republic of Uzbekistan. In particular, the experience of such countries as Germany, Sweden, the USA, and Kazakhstan will be analyzed.
Keywords: fine, legal analysis, international experience, level of social danger, income-based fine, code.

Аннотация: В статье на основе сравнительного анализа соразмерности, справедливости и эффективности штрафов, а также недостаточного учета принципов социальной справедливости и беспристрастности и степени общественной опасности при определении размеров административных и уголовных штрафов в законодательстве Республики Узбекистан и международной практике выдвигаются предложения и рекомендации по действующей системе. В частности, будет проанализирован опыт таких стран, как Германия, Швеция, США, Казахстан.
Ключевые слова: штраф, правовой анализ, международный опыт, степень общественной опасности, размер штрафа, кодекс

Kirish. Har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyatga nisbatan belgilanadigan jazo, jumladan, jarima uning sodir etilgan shaxsiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini inobatga olgan holda belgilanishi lozim. Jarima nafaqat jazo sifatida, balki kelgusida huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olish, shaxsni tarbiyalash va jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qilishi zarur. Zero, O‘zbekiston Respublikasi sud huquq tizimida jarima jazolarni qo‘llash amaliyoti, boshqa ma’muriy va jinoiy jazo choralariga nisbatan salmog‘i jihatidan yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarni bir-biridan ajratuvchi asosiy omil sifatida qonunga zid harakat yoki xarakatsizlikning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, ya’ni shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik yoki jinoyatning jamiyatga qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatishi, uning oqibatlari va tahdid darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘z navbatida, jarima jazolari miqdorini belgilashda ham ushbu qoida inobatga olinishi lozim bo‘lsa-da, amaldagi qonunchilikda, xususan, ma’muriy jarimalar miqdorini belgilashda ushbu qoidalarga rioya qilinmagan.

Jumladan: 1994-yilning 22-sentyabr kunida 2012-XII-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 44-moddasida jarima jinoiy jazo sifatida o‘sha davrdagi eng kam oylik ish haqining 5 baravaridan olti yuz baravarigacha bo‘lgan miqdorda, shuningdek, ushbu kunda tasdiqlangan 2015-XII-son bilan tasdiqlangan ma’muriy javobgarlik to‘grisida”gi Kodeksning 25-moddasida jarima ma’muriy jazo chorasi sifatida ushbu davrdagi eng kam oylik ish haqining 1/50

baravardan 5 (mansabdor shaxslar uchun esa eng kam oylik ish haqining 1/10 kismidan 15) baravarigacha etib belgilanishida jinoiy va ma'muriy jarimalar miqdori o'rtasidagi chegara ijtimoiy xavflilik darajasiga tayangan holda belgilangan bo'lsa-da, keyinchalik mazkur kodekslarga bir necha marotaba amalga oshirilgan o'zgartirishlar orqali ma'muriy va jinoiy jarimalarni bir-biridan ajratib turuvchi ijtimoiy xavflilik mezoni qoidalari buzilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy va jinoiy jazo sifatidagi jarimalar, asosan, Bazaviy hisoblash miqdori (BHM, muqaddam eng kam oylik ish haqi miqdori) asosida belgilanadi. Lekin tahlillar ko'rsatmoqdaki:

- Ba'zi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun belgilangan jarimalar, ba'zi jinoiy harakatlar uchun belgilangan jarimalardan yuqori yoki teng;
- Jarimalar shaxsning iqtisodiy holati, daromad manbai yoki ijtimoiy mavqeiga mutanosib ravishda belgilanmaydi;
- Jarimalar ijtimoiy xavflilik darajasiga emas, balki formal tartibda belgilangan me'yorlarga asoslangan holda qo'llanilmoqda.

Misol tariqasida, yo'l harakati qoidalarini buzgan shaxs 40 BHM miqdorida jarima to'lashi mumkin, holbuki, davlat mulkini o'zlashtirgan shaxsga 2 BHM miqdorida jarima tayinlanishi ehtimoli mavjud. Bu kabi noadolatli holatlar nafaqat huquqiy tizimga ishonchni susaytiradi, balki jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi prinsipining buzilishiga ham olib keladi.

Jarima tizimining ijtimoiy qatlamlarga ta'siri amaldagi jarima tizimi, asosan, universal tarzda belgilanadi va barcha fuqaro guruhlari uchun bir xil miqdorda qo'llaniladi. Bu holat, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlar uchun sezilarli og'irlikni keltirib chiqaradi, biroq yuqori daromadli shaxslar uchun uncha ta'sirchan bo'lmasligi mumkin. Bu esa huquqiy adolat tamoyilining buzilishiga olib keladi.

Masalan, 3 million so'mlik jarima, oylik daromadi 1 million so'm bo'lgan fuqaro uchun oyiga uch oylik mehnati bahosiga teng bo'lsa, daromadi 30 million so'm bo'lgan shaxs uchun bu juda kichik iqtisodiy ta'sirga ega bo'ladi. Shu bois, jarima shaxsning moliyaviy holatini inobatga olgan holda belgilanmas ekan, ularning profilaktik, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi funksiyasi izdan chiqadi.

Bundan tashqari, bu tizim jamiyatda norozilik, huquqiy tizimga ishonchsizlik, va "ikki xil adolat" tuyg'usini yuzaga keltirishi mumkin. Ayrim rivojlangan davlatlar aynan shu muammo sababli "daromadga asoslangan jarima" tizimini joriy etgan. Bunday yondashuvda har bir shaxsning shaxsiy moliyaviy holati, ijtimoiy mavqeyi va daromad manbayi hisobga olinadi, va shu asosda bir xil huquqbuzarlik uchun har xil miqdordagi jarima tayinlanadi.

Xalqaro tajriba:

1. Germaniya: "Kunlik daromad" usuli asosida jarimalar belgilanadi. Bu usulda jinoyatchining kunlik sof daromadi asos qilib olinib, belgilangan kun soniga ko'paytiriladi. Shu tariqa jarima nafaqat jazo sifatida, balki iqtisodiy ta'sir vositasi sifatida qo'llaniladi.
2. Shvetsiya: "Daromadga moslashgan jarima" (income-adjusted fines) tizimi amalda. Har bir shaxsning shaxsiy moliyaviy holati hisobga olinadi va jarima shunga mos ravishda belgilanadi. Bu aholining turli ijtimoiy qatlamlariga bir xil ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.
3. AQSh: Sudyalar jarimani shaxsning ilgarigi huquqbuzarliklari, moliyaviy holati, jinoyatning og'irligi kabi omillardan kelib chiqib belgilaydi. Ayrim shtatlarda sud qaroridan tashqari jarima summasi maxsus formulalar orqali avtomatik aniqlanadi.
4. Qozog'iston: 2020-yildan buyon ma'muriy jarimalarni to'lash darajalari jinoyat yoki huquqbuzarlikning og'irlik darajasi, takrorlanishi va ijtimoiy xavfliligi asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. Jarimalarning minimal va maksimal chegaralari aniq belgilangan.

Sud amaliyoti va ekspert fikrlaridan misollar 2022-yilda Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo ma'muriy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan ishda fuqaro R.X. yo'l harakati qoidalarini buzgani uchun 40 BHM miqdorida jarimaga tortildi. Sudda aniqlanishicha, fuqaro R.X. ishsiz va bir nafar nogiron farzandni boqadi. Sudyaga murojaatida u jarimani to'lashga qodir emasligini bildirgan. Shunga qaramay, mavjud normalar uni imtiyozsiz tarzda to'lashni talab qildi. Bu holat amaldagi tizimda shaxsning iqtisodiy holati hisobga olinmasligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy nohaqlik va jazoning tarbiyaviy emas, jazolovchi shaklga aylanishiga olib keladi.

Muammolar va yechimlar:

O‘zbekistonda amaldagi jarima tizimidagi asosiy muammolardan biri – uning universal, shaxsning iqtisodiy holati va huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini inobatga olmagan holda qo‘llanilishidadir. Bu esa huquqiy adolat va jazoning tarbiyaviy ta’sirini pasaytiradi.

Taqdim etiladigan takliflar:

1. Jarimalarni belgilovchi normalarni qayta ko‘rib chiqib, jinoyat yoki huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasiga asoslangan holda aniq chegara me’yorini belgilash;

2. Germaniya va Shvetsiya tajribasi asosida daromadga bog‘langan jarima tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

3. Sud va ma’muriy organlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish, sharh va izohlar bilan ta’minlash;

4. Jarimalarni jamoat ishlari, rasmiy ogohlantirish, ta’limiy kurslarda ishtirok etish bilan almashtirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning maqsadga muvofiqligini ta’minlash;

5. Huquqiy statistika va tadqiqotlarga asoslangan holda jarimalarning ta’sirchanligi va samaradorligini doimiy ravishda baholab borish.

Ma’muriy va jinoiy jazo sifatidagi jarimalarni belgilashda ijtimoiy xavflilik, shaxsning iqtisodiy holati, huquqbuzarlikning takrorlanish ehtimoli va jamiyat uchun keltirishi mumkin bo‘lgan zarar kabi omillarni hisobga olgan holda tizimni takomillashtirish zarur. Faqat shundagina jarimalar haqiqiy tarbiyaviy, profilaktik va jazolovchi funksiyani bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi(O‘zR 22.09.1994- y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan)
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jinoyat_kodeksi
3. Ma’muriy choralar va ularning huquqbuzarliklarga mutanosibligi tahlili: muammo va takliflar. https://asr.gov.uz/news/11994
4. Bundesministerium der Justiz. Strafgesetzbuch (StGB) - § 40 Geldstrafe. https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/__40.html
5. Swedish National Council for Crime Prevention (Brå). Income-based fines in Sweden. https://bra.se
6. United States Sentencing Commission. Guidelines Manual. https://www.ussc.gov/guidelines
7. Qozog‘iston Respublikasining Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi, 2014-yil 5-iyuldagi № 235-V.